

# Tong yulednizi

Vatan yagonadir,

Vatan bittadir!

N:6 (67223)  
2019-yil 11-fevral

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

www.tongyulednizi.uz

ISSN - 2010-6092

**14-fevral - Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kun****ADOLATNI QAROR ETDIM****Mirzo Bobur monologi**

Havas ko'nglimni qul qildi, judolikni diyor etdim,  
Bahorimni xazon qilgan zaminni lolazor etdim.

Hanuz yolg'onchi mirzolar ishonchim oqlayolmaydi,  
Qamaldan chiqmagan qalbim quyoshin intizor etdim.

Ichar qonimni xoinlar kechib Xonzodabegimdan,  
Murodimga yetolmasdan o'zimni xor-u zor etdim.

Asov otimga irg'ishlab borib Jayhunga yuzlandim,  
Ishondim Hind-u Afg'onga adolatni qaror etdim.

Kuyib ketmoqda sahrolar dilimning o'tidan yo Rab,  
Azobimdan yog'ilgan baytlarimni elga yor etdim.

Netaykim ko'hna dunyoning hama g'avg'osidan kuydim,  
G'animplarning g'amin o'ylab «Vaqoe»da viqor etdim.

Mening savdoysi ko'nglimga umidin bog'lagay borliq,  
Vatan tuprog'idan sog'inch tilab ishqimni xor etdim.

Zamonlar zulmidan so'zlab dilim qon aylading, Bobur,  
Yonib Axtamqli bo'lmoqni men ham ixtiyor etdim.

**AXTAMQLI****USHBU SONDA:****JURNALDAGI  
SOXTA  
BAHOLAR****3-bet****NUROTALIKLARNING  
NURLI YO'LI****4-bet****NIHOL  
EKKAN CHOL  
(Ertak)****6-bet**

# TERAN TAFAKKUR SOHLI

*Tarixda shunday shaxslar bo'ladiki, ularning umr mazmu-ni, insoniyat tarixi va madaniyatiga qo'shgan hissalarini o'rganib adog'iga yetkazish mushkul. Ular bilan bog'liq tarixiy manbalar, turli adib va tarixchilar qoldirgan qimmatli ma'lumotlarni o'rganan ekanmiz, bu shaxslarning sirli olami, shaxsiyatining biz bilmagan, o'rganmagan jihat-lari ochilaveradi. Ana shunday buyuk zotlardan biri ulug' shoir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburdir.*

Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ulug' ajdodimiz haqida shunday degan edi: «Bu buyuk zot o'n ikki yoshidan boshlab Temuriylar davlatini saqlab qolish uchun o'zini o'tga ham, cho'qqa ham urdi, hech qanday dushmanidan ham, sinovdan ham qo'rqnadi. Qirq olti yillik umri davomida bir zum ham halovat bilmasdan o'tdi. O'z avlodlariga Vatanga bo'lgan buyuk muhabbatni, ezuq fazilatlarini meros qilib qoldirdi».

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so'z yuritar ekanmiz, ko'z oldimizda o'zbek adabiyotining Alisher Navoiydan keyingi buyuk namoyandası gavdalani. Zero, mashhur muarriz Mirzo Haydar aytganidek: «Turkiy she'mi Amir Alisherdan keyin hech kim Bobur yozgan darajada yozgan emas».

Hozirgacha shoiring 119 g'azal, 1 masnaviy she'ri, 209 ruboysi, 10 dan ortiq tuyuq va qit'alari, 50 dan ortiq muammo va 60 dan ziyyod fardlari aniqlangan. Devoni tarkibidagi umumiy hajmi 270 baytdan iborat 8 masnaviy ham o'ren olgan. Afg'onistonlik adabiyotshunos olima Shafiqqa Yorqin Boburning Turkiyaning Istanbul universiteti kutubxonasi turkiy qo'lyozmalar bo'limida 3743 raqami ostida saqlanayotgan devondagi uning hozirgacha nashr etilgan to'plamlariga kirmagan o'zbek tilidagi 5 g'azali, 9 qit'asi, 5 ruboysi, 9 masnaviy she'ri, 10 to'rtligi, 2 tuyug'i, 40 dan ortiq fardlari, 2 nomasi, fors-tojik tilidagi 1 g'azali, 10 ruboysi, 4 qit'asi, 12 fardi va 1 nomasini e'lon qildi.

Bundan tashqari, Bobur o'g'llari Humoyun va Kamron Mirzolarga atab, shariat aqidalariga bag'ishlangan «Mubayyin» asarini, aruz nazariyasiga oid «Mufassal» kitobini yaratdi. Xoja

Ahror Valiyining «Voldiyya» risolasini she'riy tarjima qiladi. Arab alifbosini isloq qilib, yozuvni sodda-lashtirish va oson-lashtirish, uni turkiy til va talaf-fuz mezon-lariga mos-lashtirish maqsadida «Xatti Boburiy»ni ixtiro qildi. Uning mu-siga san'atiga oid «Musiqiy», harb ishlariiga doir «Harb ishi» risolalari ham bo'lib, ular hozirgacha topilmagan. Mashhur ingiliz tarixchisi va «Boburnoma» mu-tarjimi Ulyam Erskinning yozishicha: «Bobur yaratgan kuy va qo'shiqlar juda yoqimli ohangda bo'lib, uning vafotidan keyin ham xalq og'zidan tushmadidi».

Shoirga olamshumul shuhrat keltirgan tarixiy memuar asari «Boburnoma»dir. Bu mashhur asar adib vafotidan uncha ko'p vaqt o'tmasdan fors tiliga, 1826-yili Ulyam Erskin tarjimasida Londonda ingliz tilida, keyinroq 1828-yilda nemis, 1871-yilda fransuz, 1921-yilda yana ingliz tilida nashr etilgan. «Boburnoma»ning o'ziga xos jihatlarini o'chib berishda o'zbek, hind, afg'on olimlari, yevropolik, yaponiyalik tadqiqotchilar chuqur ilmiy izlanishlar olib bordilar.

Asar xus-usida to'xtala-digan bo'lsak,



unda XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Mavarounnahr, Xuroson va Hindistonda kechgan voqealar, Temuriylar sultanating inqirozi, Shayboniyarlari hokimiyyat tepasiga kelishi haqqoniy o'z ifodasini topgan. «Boburnoma»da Husayn Boyqaro, Muhammad Shayboniy, Ubaydullahxon, Shoh Ismoil Safaviy, Ibrohim Lodi kabi o'nlab hukmdorlar, Alisher Navoiy, Kamoliddin Binoiy, Behzod, Xondamir, Mirzo Haydar singari qator ijodkorlar to'g'risida ma'lumotlar va xotiralar keltirgan. Shuningdek, bu asarda Mavarounnahr, Afg'oniston va Hindiston mamlakatlari tarixi, madaniyi, tabiatni, hayvonot va o'simlik dunyosi,

shahar va qishloqlari, bu yerdagi yashagan xalqlarning turmush tarzi, urf-odat, an'analar, diniy e'tiqod va marosimlari, turli ijtimoiy tabaqalar, harbiy san'at va jang qurollari, o'zining urush-yurishlari, turli fanlarga oid ko'pdan ko'p ma'lumotlar o'ren ol-gan. Ingliz sharqshunosi F.Talbotning tili bilan aytganda, «Hozirgi Hindiston o'tmishini o'rganmoqchi bo'lgan kishi ishni, eng yax-shisi, Boburning xotiralarini mutolaa qilishdan boshlagani ma'qul».

Bizni qiziqitradigan yana bir jihat, o'zbekning ikki zabardast shoiri Navoiy va Bobur o'ttasidagi munosabatlardir. Ularning bir-biriga yo'llagan maktublari bizgacha yetib kelmaygan, «Boburnoma»da uning Alisher Navoiyga ikki marta maktub yozgani to'g'risida ma'lumotlar bor.

Boburning shaxsiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, 47 yillik umrining 36 yili notinchlikda o'tgani, yurt sog'inchi uni qiynganagini, uning asarlarini bir bor o'qigan

kitobxon ham payqashi mumkin.

Shoir asarlariga haqqoniylik nuqtayi nazardan yondashadi, voqealarni to'lig'icha, ochiq bayon qiladi, o'zining qusurlari va zaifliklarini, xato-kamchiliklarini mardonavor bayon etadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat xalqimiz, balki jahon tarixida ham yuksak darajada, sezilarli iz qoldirgan teran tafakkur egasi va mohir davlat arbobidir.

Hasan RAJABOV,  
poytaxtimizdag  
146-umumta'l  
maktabining tarix fani  
o'qituvchisi

## ULUG' SARKARDA BOBOM

Sarkarda, ulug' shohim,  
Ajodimsiz chirog'im.  
Siz-la chiqar savodim,  
Ey Bobur, ulug' bobom.  
«Boburnoma» asari,  
Kitoblarining sarvari.  
U nazmnинг dilbari,  
Shoh, shoir Bobur bobom.

Abdulatif ABDUJABBOROV,

poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi «Orom» nomli 38-umumta'l maktabining  
3-«Y» sinif o'quvchisi

## SHOH VA SHOIR BOBUR SHAXSIYATIGA XOS 7 FAZILAT

- Vatanparvarlik.
- Yuksak himmatllilik.
- Jasurlik.
- Boshqaruvda benazirlik.
- Odamlarga farovonlik sog'inish.
- Jangchilar ko'ngliga yo'l topish.
- Adolat qilmoqlik.

Omina ABDULHAFIZOVA,

7-«G» sinif o'quvchisi

## UL DOVYURAK TEMURIYZODA

Olis tarix ostonasidan,  
Kelayotir mungli bir sado.  
Ey Andijon, seni sog'inib,  
Bobur bobom aylagan nido.

Bobom uchun qadrli doim,  
Andijonning qovunlari ham.  
Vatan sog'inchini bosolmas,  
Bo'lsa dunyo boyliklari jam.

O'n bir yoshda taxta o'lirib,  
«Yo'lbars» nomin olgan shahzoda.  
Sohibqiron shoh davomchisi,  
Ul dovyurak temuriyzoda.

Umida RAHMONOVA,  
Buxoro viloyati, Peshku tumanidagi 11-umumta'l maktabining Yoshlar ittifoqi sardori

## BILIMLILAR SINOVdan O'TDI

*Har yili yurtimizda bobokalonimiz Alisher Navoiyning tavallud ayyomlari keng miyosda nishonlanadi. Shu kuni barcha ta'lim maskanlarida turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, g'azalxonlik kechalari o'tkazilib, o'quvchilar bobomiz ijodini o'rganishga intiladilar.*

Kuni kecha bizning viloyatimizda ham ushbu sanaga bag'ishlab maktabalararo «Navoiyxonlik» tanlovi o'tkazildi. Birinchi shartda ishtirokchilar Navoiy g'azallarini tahlii qilib, yig'ilganlarga o's fikr-mulohazalarini bayon etdilar. Keyingi shartda esa qatnashchilar «Men g'azal shaydosiman» mavzusida insho yozdilar. Barcha ijodiy ishlar hay'at a'zolari tomonidan munosib baholab borildi. So'nggi shart esa «Zukkolar» deb nomlanib, unda o'quvchilarning Alisher Navoiy va shoir yoqong asarlari haqida qanchalik bilimga ega ekanligi sinovdan o'tdi.

Tadbir yakunida faol ishtirokchilar faxriy yorliq va esdalik sovg'alarini bilan taqdirlanishdi.

Yoqutxon SODIQJONOVA,

Farg'onaviyoti, Qo'qon shahridagi 22-umumta'l'm maktabining 10-«B» sinf o'quvchisi

## BUVIJONIM SABOQLARI

*Ustoz - hayot gulshanining bog'boni. U o'sayotgan nozik nihollarni parvarish qilib, go'zal va betakror o'sishi, gullab-yashnashi uchun astoydil harakat qiladi.*

Bugun hayotda erishayotgan yutuqlarimizning bari ana shu zotlar sababli, desam, mubolog'a bo'lmaydi.

Men o'zim va o'zligimni buvijonimning ertag-u dostonlari, she'rlari bilan taniganman. Chunki buvijonim zamonasining eng o'qimishli ayoli bo'lganligi sababli, hozir ham nabiralariga adapiyot durdonalari va xalq og'zaki ijod namunalardan aytib beradilar. Ularning bergan saboqlari bugungi kunda yaxshi o'qishimiz uchun zamin yaratmoqda.

Bolaligimdan maqsadlarimga erishish uchun astoydil harakat qilishim, doimo oldinga, bilim olishga intilishim buvijonim singdirgan tarbiyalaridan deb bilaman. Ba'zida biror-bir to'siqqa duch kelsam, ularning so'zlarini eslayman. O'sha damlarda buvijonimning ijod namunalarini tinglagim, ulardan munosib xulosa chiqargim keladi.

Kumushxon ABDIYEVA,

Samarqand viyoti, Qo'shrabot tumanidagi 26-umumta'l'm maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

## «PANJARA ORTIDAN»

*nomli videorolik bizda katta taassurot qoldirdi.  
Aziz tengdoshim! Haftaning har juma kuni ta'lim maskanlarida ma'naviyat kuni deb e'lon qilinganini yaxshi bilasiz. Bu ajoyib kunni maktabimizdagida barcha o'quvchilar juda soz o'tkazishadi.*

Kuni kecha ta'lim maskanimizda ajoyib tadbir o'tkazdig-u, uni sizlarga ham ilingim keldi. «Giyohvandlik - umr zavoli va bugungi yoshlarimizning asosiy muammosi» mavzusidagi davra suhbatiga mutaxassislar tashrif buyurdi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi prokurori Ozodjon aka Shodiqulov bizga bu illatning salbyi oqibatlari haqida so'zlab berdi. Tuman tibbiyat birlashmasi shifokori M. Ahmedova va maktabimiz shifokori Sh. Axunjanova esa giyohvand moddalarning organizma ta'siri va asorati to'g'risida ma'lumot berdi. Ayniqsa, namoyish qilingan «Panjara ortidan» nomli videorolik bizda katta taassurot qoldirdi. Unda giyohvand insonlarning achchiq taqdiri, nogiron bolalari va ota-onasining nolasi tasvirlangan.



Shu o'rinda sevimli gazetam orqali biz uchun ana shunday mazmuni tadbirlarini tashkilashtirayotgan maktabimiz rahbari U. Rashidova, direktor o'rnbosalarli - O. Qodirov, I. Mo'minova hamda Yoshlar ittifoqi yetakchisi F. Ahmedovaga minnatdorlik bildirmoqchiman.

Sevinch KENJAYEVA,  
Toshkent shahar, Mirobod tumanidagi  
110-IDUMning 8-«J» sinf o'quvchisi

Kuch - aqida.

Aqlsiz bosh hamisoli shamsiz chiroq.

L. TOLSTOY

*«Mashaqqatsiz baxt kelmas, mehnatsiz taxt». Xalqimiz orasida mashhur bo'lgan bu maqol bugun insonlar hayotida juda ko'p bor o'z isbotini topmoqda, desam, xato bo'lmaydi. Lekin, afsuski, ushbu naqlga hamma ham birdek amal qilavermaydi.*

## JURNALDAGI SOXTA BAHOLAR



Ayniqsa, keyingi paytlarda ba'zi tengdoshlarim mehnat qilmay, o'qib-o'rganmay turib ham oliv cho'qqilarni ko'zlamoqda. Albatta, bunday o'ngilsizliklarni o'z vaqtida bartaraf etish uchun masalaga xolisona yondashish foydadan xoli bo'lmaydi...

Qo'shni xonada o'qiydigan maktabdoshlarim a'lochilar safida bo'lishni istab qolibdi. Bir kuni jismoniylar tarbiya darsida o'quvchilarning sport zaldaligidan foydalanib, sinf jurnaliga barcha fanlardan o'zlariga choraklik chiqarib olibdi. O'qituvchilar buni payqab qolib, ularga rosa tanbeh beribdi. Keyin bilishsa, ular oldin ham bunday «ibratli» ishlarni qilib yurisharkan. Lekin «Qing'ir ishning qiyig'i qirq yilda ham chiqadi». Afsus, ular bu ishi orqali ustozlari, ota-onasini emas, balki birinchi galda o'zlarini aldamoqda.

Xullas, ana shu voqeadan keyin ularning ota-onasini maktabga chiqitirishibdi. Kim biladi deysiz, ular yaqnirlari oldida bu ishlardan rosa izza bo'lishgandir. Har holda mazkur voqeadan boshqa o'quvchilar ham o'zlariga tegishli xulosa chiqarib olgan bo'lsalar, ajabmas.

Tan olish lozim, oramizda faqat baho olish uchun o'qiydigan bolalar talaygina topiladi. To'g'risini aytganda, bunga ota-onalarning o'zlarini ham sababchi deb o'layman. Chunki aksariyat ota-onalar farzandlari maktabdan kelganda, «Bugun nechta baho olding?» deyishdan u yog'iga o'tishmaydi. Aslida, har bir o'quvchi bilim olishga sidqidildan yondashmas ekan, faqat baho uchungina yuzaki o'zlashtirilgan ma'lumot xotiraga muhrlanib qolishi amrimahol.

Xulosa qilib aytganda, bu kabi qusurlami bartaraf etish uchun ota-onalar farzandlarini ko'proq kitob mutolaasiga jaib etishsa, ular maktabdan kelganlarida, «Bugun mактабда nechta baho olding?» deb emas, balki «Bugun mактабда nimalar o'rganding?» deb qarshi olishsa, maqsadga muvofiq bo'lardi, deb o'layman. Shundagina biz o'quvchilarning ilm olishga bo'lgan ishtiyoyqimiz yanada oshadi. Xo'sh, Siz nima deysiz, aziz tengdoshim?!

Dilshodbek RAHMATULLAYEV,  
Qashqadaryo viyoti, Yakkabog' tumanidagi 13-umumta'l'm maktabining 10-sinf o'quvchisi



## SINFIMIZGA TASHAKKURNOMA KELDI

*Biz Andijon viloyatinning havosi tanga rohat, suvi zilol, qoyalari bulutlarga tutash tog'lar bilan o'ralgan, odamlari sodda, samimi, ajoyib, go'zal qishloqda yashaymiz.*

Biz 3-«A» sinf o'quvchilari matematika faniga ixtisoslashtirilgan sinfdan a'lo baholarga o'qish barobarida Vatanimiz, xalqimiz hayotidagi ulkan o'zgarishlar, tengdoshlarimiz erishayotgan yuqulardan boxabar bo'lishimizda «Tong yulduzi» gazetasining xizmatlari beqiyos. Ustozimiz Dilorom opa Imrinjonova boshchiligidagi gazetaning har bir sonini zo'r intiqlik, sog'inch, quvondan kutib olamiz.

Yaqinda maktabimizga quvonchli xabar tarqaldi. Ya'ni, sinfimiz o'quvchilari obuna mavsumida «Eng faol sinf» deb topilib, tahririyatning «TASHAK-

KURNOMA»si va qimmatbaho sovg'alariga ega bo'ldi. Bu e'tirofdan maktabimiz jamoasi, ota-onalarning xursandchiligi cheksiz edi.

Sovg'alardan, xushxabardan ruhlangan sinfimiz o'quvchilari gazetaga fevral oy uchun yanada ko'proq obuna bo'lishga ahd qildilar.

Bir so'z bilan aytganda, biz gazetaning har bir yangi sonini intiq kutamiz. Chunki «TONG YULDUZI» biz uchun UMID YULDUZI»dir...

Andijon viloyati, Xo'jaobod tumanidagi 5-umumta'l'm maktabining 3-«A» sinf o'quvchilari



## NAVOIY IZDOSHLARI

Farg'ona viloyati, Beshariq tuman «Barkamol avlod» bolalar markazida she'riyat multkining sultoni Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan «Navoiy izdoshlari» nomli ko'rlik-tanlov bo'lib o'tdi.

Unda o'quvchilar bir necha shartlar bo'yicha o'zaro bellashdilar. Tanlovning «Eng yaxshi she'r» nominatsiyasida 24-umumta'lum maktabining 10-sinf o'quvchisi Durdona Yunusova g'olib bo'lgan bo'lsa, Ozoda Egamberdiyeva, Maftuna Mamajonova, Baxtigul Muhammadjonova, Nilufar Sahobiddinova kabi o'quvchilar «Eng yaxshi maqola», «Eng yaxshi g'azalxon», «Eng yaxshi insho» nominatsiyalarida tengsiz bo'ldilar. G'olibrarni markaz direktori Fotima Karimova diplomi va esdalik sovg'alari bilan taqdirladi. Tadbirda Mashrabxon Soipova rahbarlik qilayotgan «Yosh jurnalist va notiq» hamda Dilafro'z Jo'reyeva boshchiligidagi «Bichish-tikishi» to'garagi o'quvchilar faol ishtirok etdi. Ayniqsa, Sanamxon Muhiddinova, Sanjarbek Bo'ronboev, Shahriyor Yoqubjonov kabi iqtidori o'quvchilar Navoiy g'azallaridan ifodalayti, barchaning olqishiga sazovor bo'ldi.

Tadbirda so'zga chiqqan «Beshariq tongi» gazetasi Bosh muharriri Sobirjon Temirov, bo'lim muharriri Turg'unali Hoshimov, markaz direktori o'rningbosari Ne'matjon Madumarov, 24-umumta'lum maktabi yetakchisi Alisher Hakimovlar Navoiy ijodini chuqur o'rganish yoshlar qalbiga buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg'usini jo etib, ona tilimizga cheksiz mehr uyg'otishini alohida ta'kidladilar.

O'z muxbirimiz

Kuni kecha «Barkamol avlod» respublika bolalar texnik ijodiyot markazida «Yosh doirachi» to'garagi a'zolari ishtirokida «RHYTHMS OF DOYRA» mavzusida konsert dasturi bo'lib o'tdi.



## GUMBURLAGAN DOIRA SADOSI

Tadbirda Mirhasan Tursunov, Abdullajon Isroilov, Rixsiko'ja Husniddinov, Ozodbek Boboniyozov kabi ko'plab faol to'garak a'zolari mashg'ulotlarda o'rgangan usullarni yig'ilganlarga namoyish etdi.

— Doira chalishni xush ko'rman. San'atga doir bilimlarimni shogirdlarimga ham sidqidildan o'rgataman. Biz guruhimiz bilan ko'plab milliy tadbirlarda qatnashib kelyapmiz. Maqsadimiz, xalqimizning yaxshi kunlarda xizmat qilish, — deydi to'garak rahbari Rasulxon Mahmudaliyev.

Jumlordan, yosh iqtidor egalari konsert davomida «Tantana», «Yetti zarb sadolari», «Chaman», «Guldasta», «Doira sadolari», «Sharq usullari» singari kuyularni doira, tabla, nog'ora, buben, baraban kabi cholg'u asboblarida ijo etdilar.

Kechada poytaxtimizdagi 101-, 114-, 200-, 217-umumta'lum maktablari o'quvchilar, shuningdek, «Xirmontepa» mahalla faollari ishtirok etdi.

Tadbir so'ngida qatnashchilarga «Barkamol avlod» respublika bolalar tekniq ijodiyot markazi tomonidan faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

N. ABDUNAZAROVA

11-fevral 2019



Poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 206-umumta'lum maktabida Alisher Navoiy tavalludining 578 yilligiga bag'ishlab

«Buyuk siymo» nomli tadbir bo'lib o'tdi.

Kechada Dilorom Boymatova rahbarlik qilayotgan 3-«A» sinf o'quvchilar tomonidan shoir g'azallari, rubyoilari ifodaligi o'qildi. Lutfiy, Davlatshoh va Navoiy siymosi gavdalantirilgan sahna ko'rinishlari namoyish etildi. Ayniqsa, Asadbek Xudoyerov, Charos Xudoyerova va Durdona Mahmudjonova tomonidan ijo etilgan g'azal va ruboilyar yig'ilganlarda katta taassurot qoldirdi.



## NUROTALIKLARNING NURLI YO'L

— Bolajonlar, bugun Fariddin Anvarovni bir ovozdan qutlaymiz, chunki u «Bilimlar bellashuvining viloyat bosqichi g'olib bo'ldi, — ustoz Izzatoy Uzoqovanining bu xushxabaridan so'ng barcha sinfdoshlari Fariddinni qutlashdi. «Ishonamanki, sen bundan ham yuqori natijalarini qo'iga kiritasan...!»

Navoiy viloyati, Nurotu tumanida joylashtigan 18-umumta'lum maktabi o'quvchilar orasida 9-sinf o'quvchisi Fariddin kabi ilmga chanqoq bolalar juda ko'p. Jumladan, 2017-2018-o'quv yilida uning maktaboshi Malika Hasanova, 8-sinf o'quvchisi Jasur Ravshanov rus tilidan, Sevara Olimova chizmachilik, Shahzoda Shodiqulova hamda Nozima Ibrohimovalar esa inglz til bo'yicha fan olimpiadasidan yuqori natijalarini qo'iga kiritdi.

— O'quvchilarimiz erishayotgan bunday muvaffaqiyatlarda ustoz-u murabbiylarning mehnatlari kabi «Tong yulduzi» gazetasining ham o'mi beqiyos, — deydi maktab direktori Mehriniso opa Hamroyeva. — Chunki bu nasr orqali tengdoshlarining muvaffaqiyatlari bilan yaqindan tanishib borayotgan o'quvchilarim ularga doim havas qiladilar. Mana, bugun ularning o'zları ham ilm cho'qqilarini birma-bir zabit etmoqdalar. Fan olimpiadalarida g'olib bo'lgan o'quvchilarimiz endilikda ustozlari bilan navbatdagi sinovlarga qizg'in tayyorgarlik ko'rmoqda. Bilim maskanimizda nafaqat o'quvchilar, balki o'qituvchilar ham ta'lim sohasida yuksak natijalarga erishmoqda. Masalan, chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fani o'qituvchisi Shuhrat Rahmonov mazkur fan bo'yicha o'tkazilgan tanlovning viloyat bosqichida 1-o'rinni qo'iga kiritdi. Maktabimizda 10 dan ortiq sport to'garaklari tashkil etilgan bo'lib, ular faoliyati mazmuni va sifatlari yo'iga qo'yilgan, — deydi maktab rahbari.

Sizning maktabingizda ham nurotalik yoshlar singari tirishqoq o'quvchilar ko'pligiga shubhamiz yo'q. Siz ham bizga bilim maskaningiz haqida yozib yuboring. Yodda tuting: «Tong yulduzi» siz va sizga o'xshagan o'quvchilarining ishonchli minbaridir.

Ozoda TURSUNBOYEVA

## QIZLAR SOG'LOM BO'LSA...

Yurtimizning barcha ta'lif muassasalarida, mahallalarda «Qizlarjon» klubini tashkil etilmoqda.



Klub 7 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yosh xotin-qizlarni ixtiyoriy ravishda birlashtirib, ularning ta'lif olishi, kasb-hunar egallashi uchun sharoitlar yaratish, bandligini ta'minlash, ishbilarmonlik qobiliyatini rivojlantirish, ijtimoiy faoliygini oshirishga ko'maklashadi.

Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 235-umumta'lif maktabida «Qizlarjon» klubini rahbari Jamila opa Saidaliyeva tashabbusi bilan «Qiz bola bo'lajak oila bekasi» mavzusidagi dava subhatida 8-11-sinf qizlari ishtirot etdi.

Tadbirda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi targ'ibotchisi Adiba opa Kamalova so'zga chiqib, har bir inson kamolotida oilaning o'rni beqiyos ekanini ta'kidladilar.

— Qizlar sog'lon bo'lsa, kelajakda oila sog'lon bo'ladi, — deydi tumanning 50-o'llayiv poliklinikasi shifokori Ziyoda Nasriddinova. Shu bois, qiz bola yoshligidan o'z salomatligiga e'tiborli bo'lishi lozim.

Shuningdek, tadbirda Yunusobod tumanini «Oila» ilmiy tadqiqot markazi rahbari Iqbolxon opa Ashrapova o'smir qizlar bilan baxtili bo'lish sirlari haqida jonli muloqotda bo'ldi. Mehmon, suhbat jayonida har bir kunni ota-onamizga salom berishdan boshlash kerakligiga alohida urg'u berib, yaqinlarni hurmat qilish, ularga xushmuomalada bo'lish, uyni orasta tutishni yoshlikdan o'rganish kerakligini ta'kidladilar.

Nigora JO'RAEVA

## PRESENT PERFECT CONTINUOUS

Use the present perfect continuous to emphasize that an action that an action has been long and repeated.

e.g. **Rustam have been preparing for his exam since morning.**

With state verbs (e.g. like, love understand, remember, know, etc.) we can not use the present perfect continuous, so we use present perfect simple.

We often use for, since and How long have you ...? with the present perfect continuous. We chose the present perfect continuous where possible, unless the main verb is a state verb.

## POLITE REQUESTS

**Match requests 1-5 with responses A) -E).**

1. Excuse me, could you tell me where I can find the bathroom?
2. Could you call me a taxi?
3. Would you mind helping me with my bags? They are very heavy.
4. Could you mind opening the window?
5. Could you tell what time the restaurant opens?



Muhammadsharif FAYZULLAYEV

Fikr ham – oziq. Fikrlash esa oziqlanish demakdir.

V. GYUGO

Assalomu alaykum, «Tong yulduzi»ning jonkuyar ijodkorlari! Biz bu gazetaning ashaddiy, yo'q-yo'q, eng ashaddiy muxlislarimiz! Buni maktabimizdan tahririyatga yo'llanayotgan sanoqsiz maktublardan ham bilgan bo'lsangizlar, ajab emas. Albatta, shunday bo'ladi-da! Chunki maktabimizga muharrir opalarimizning tashrifni butun o'quvchilar-u ota-onalar qulog'iaga yetganidan so'ng bu e'tibor bizni yanada oldinga boshlayapti!


## BIRINCHILIK BIZNIKI

Bugun maktub yozishga arzirli sababimiz bor. Bilasizmi, yaqinda maktabimizda o'tgan «Bilimlar bellashuvi»da birinchilik bizniki bo'ldi. Unda 4-sinflar o'tasida ona tili fanidan Sevinch Gulmurodova, Amirjon Amrilloyeva va Avazbek Boltayev, inglz tili fanidan Sevinch Gulmurodova va rus tili fanidan Jasmina Hikmatova 1-o'rinni egalladi.

Yana bir yangilik shuki, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun shanba – o'quv kuni bo'lmasa-da, tinib-tinchimas sinf rahbarimiz biz o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, «Kitobxonlar bayrami»ni tashkillashtirdi. Shuningdek, jismoniy tarbiya fani ustozimiz tashabbusi bilan «Biz mard, jasur alplarmiz» mavzusidagi bellashuv ham shanba kuni o'tkazildi. Eng quvonarli, unda ham bizning 4-«V» – «Jaloliddin Manguberdi» guruhimiz 1-o'rinni egalladi.

Endi aytинг, bundan faxrlanmay bo'ladi-mi, axir?! Shu o'rinda sevimli gazetamiz orqali a'lochi sindoshlarimizga omad tilash bilan birga, jonkuyar ustozimiz

Tursunoy opa Hasanovaga ming-ming tashakkur aytgimiz keldi.



Akramjon AHMADOV,  
Sevinchxon BAXTIYOROVA,  
Buxoro viloyati, G'ujduvon tumanidagi  
43-umumta'lif maktabi o'quvchilar

### Lesson 6

## INGLIZ TILINI O'RGANAMIZ

## CIRCLE THE CORRECT WORD

**Ex:** You can take a pen/a classroom.

1. Can you close a window/mobile?
2. You must turn off the radio/a program.
- It is very noisy here.
3. You should open a door/a light.
4. She should go to a doctor/a shop.
- She is ill.
5. His brother like swim in a swimmingpool/a mountain.
6. My mother prepares delicious meal/potato.
7. Can you use you flash card/cartoon.
- Mine is broken down.
8. Our teacher can speak in English/Frenchmen.



Painter: Yaqubbek HALIMBEKOV



## TEST YOURSELF

1. Translate the sentence into English. **Uyda kimdir bor?**
  - A) There is somebody in the house;
  - B) There is something in the house;
  - C) At home some in the house.
2. Find the conjunction of comparative degree.
  - A) Then;
  - B) That;
  - C) Than.

3 Dildora speaks English \_\_\_\_\_

- A) good;
- B) well;
- C) very.

4. \_\_\_\_\_ used to talk about what will happen or could happen.

- A) am going;
- B) going to;
- C) to be going to.

Nilufar SUNNATOVA,  
The pupil of school № 19, Gijduvan district, Bukhara region

# BUXORONING QALDIRG'OCHLARI

Buxoro azaldan ma'rifat-u madaniyat, adabiyot maskani bo'lib kelgani hech kimga sir emas. Bu muqaddas zamin qanchadan qancha shoirlar, olimlar-u fozillarni yetkazib bergan. Hozir sizga ilinayotganimiz Buxoro viloyati, Romitan tumanidagi 23-sonli ona tili va adabiyot faniga ixtisoslashtirilgan umumta'l'm maktabi ijodkor o'quvchilarining she'rlaridir. Ular maktabda tashkil etilgan «Yosh qalamkashlar» to'garagi a'zolari

## QATRALAR

Qalbi ojiz, ammo ko'zları ochiq inson uchun fasillar almashadi. Lekin ko'zları ojiz, qalbi ochiq inson uchun doimo hayot bahordir.

Dildora HALIMOVA,  
11-sinf o'quvchisi

## TOPISHMOQ



Mening shaklim yumaloq,  
Hamma yerimdir po'stloq.  
Nomim nima, aytng tez?!  
Topolmaysiz, men - Qovoq!

## HANDALAK

Men o'xshayman qovunga,  
Ammo qovun emasman.  
Mening nomim handalak,  
Tarvuz akamdekmasman.

Mehrinoz TOSHBOLTAYEVA,  
6-sinf o'quvchisi



## GILOS

Gilosdir mening ismim,  
Mosdir ismimga jismim.  
Biroz achchiq-chuchukdir,  
Quyosh tegmagan qismim.

Charos ABDULLAYEVA,  
5-sinf o'quvchisi

## QAHRAMON AKALARGA

Yurtimizni qo'riqlab,  
Jon fido aylab ular.  
Qahramon degan nomga –  
Sazovor ham bo'ldilar.  
Ko'zida o't chaqnaydi,  
Shu xalq uchun yashaydi.  
Dushmanni zir titratab,  
O'z burchini oqlaydi.

Sarvinoz KOMILOVA,  
5-sinf o'quvchisi

## DONISHMAND BOBO ERTAKLARI

### (Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Qadim-qadim zamonda yaxshilar omonda-yu yomonlar gumonda bo'lgan bir mamlakat bor ekan. O'sha yurting oppoq qorlarga o'ralgan baland tog'lari, qo'y-u mollari yayrab yuradigan poyonsiz adirlari, shirin-shirin mevalar beradigan bog'u roq'lari bo'lgan ekan.

Tog' etagida bir chol bilan kampir yashar ekan. Ular kulbalarda bir-ikki qo'y, besh-o'n tovuq boqib, shu bilan tirikchilik qilisharkan. Cholning po'latdan yasalgan mehnat quroli bo'lib, uning yordamida qirlar bag'ridagi yerkanni o'yib, mevali ko'chatlar ekarkan. Keyin eshagiga minib, huv uzoqdan meshda suv olib kelar, so'ng ana shu nihollar tagiga quyarkan.

Ularning kulbasi karvonlar o'tadigan katta yo'lining yaqinida joylashgan ekan. Bir kun shu yo'dan podsho o'tadigan bo'lib qolibdi. Hamma uning istiqboliga peshvoz chiqib, qo'lini qovushtirib salom berib turganda, chol o'tgan-ketganga e'tibor bermay, chaq-chaq etib, toshli yerini kovlayveribdi. Shohning nazari una tushibdi va qiziqib:

– Nega hammaning qo'li ko'ksida egilib salomda turibdi-yu, bu chol esa hatto boshini ham ko'tarmayapti. Qani, otni shu chol tomona buringlar, – deb buyuribdi.

Shahanshoh cholning tepasiga borsa ham uning parvoyiga kelmay ishlayotgan emish. Nihoyat, podsho cholga salom beribdi. Shundagina mo'ysafid qo'lidagi mehnat qurolini yerga qo'yib, «Kel o'g'ilim, kamprim choy damlagan, bir piyola ich, mehmonimiz bo'l. To't dona mevam bor, shundan ham nasibangni olib ket», debdi. Podsho cholning ish quroliga sinchiklab qarabdi. So'ng:

– Nega toshloq yerni kavlayapsiz? – deb so'rabi.

### (Ertak)

– Har yili shu atrofga qo'limdan kelgancha nihol qadab, uni parvarish qilaman.

Bugun yana to'rt tup yangi nihol olib keldim,



## NIHOL EKKAN CHOL

shuni ekmoqchi bo'lib joy hozirlayotgandim, – deb javob beribdi.

Shoh keksa otaxonning shu yoshida mashaqqat bilan bajarayotgan mehnatining mohiyatini baribir anglab yetmabdi.

– Bobo, – debdi shoh, – qiziq, yoshingiz bir joyga borib qolgan bo'lsa, ekayotgan bu nihollaringiz qachon o'sadi-yu, qachon mevaga kiradi. Sizga yeish nasib qilmasligi ham mumkin-ku, – debdi. Shunda chol munkaygan qaddini ko'tarib:

– To'g'i aytasan, o'g'ilim. Men bu niholning daraxt bo'lganini ko'rolmasligim, soyasida o'tirolmasligim, mevasidan yeya olmasligim mumkin,

### (Xudoyerberdi TO'XTABOYEV, O'zbekiston xalq yozuvchisi)

ammo nevara-chevaralarim, shu manzildan o'tgan-ketganlar undan bahramand bo'lishi mumkin. Shuning savobiga ekaman, – debdi.

Qariyaning so'zlarini tinglab turgan podshoga uning «Nevara-chevaralarim yeydi», degan gapi ma'qul bo'libdi.

– Otaxonga bir tanga oltin beringlar! – deb buyuribdi. Mulozimlar darhol unga bir tanga oltin beribdi. Chol esa qo'lini duoga oshib, «Mano o'g'ilim, men ekkan nihollar illi hosilini beridi», debdi. Shunda podshoga bu gap ma'qul kelib:

– Yana bir tanga beringlar, – deb amr qilibdi. So'ng:

– Orzungiz bormi? – deb so'rabi.

– Bor, – debdi keksa otaxon.

– Ayting, nima niyatizing bor?

– Uzoq yildan beri qancha urinsam ham shu dashtga suv chiqara olmadim. O'g'illarim meshda tashiydigan suv bilan kun ko'ramiz. Shu yerga bir kulba qurib bersang, sendan behad xursand bo'lardim. Shu kunnarda o'g'ilim bilan kelinin farzand ko'ray deb turibdi. Nabiralarim mendek suv zor bo'limasini, – debdi.

Nabira degan so'z shohning qulog'iga yoqimi eshitilib, ko'ngli yorishib ketibdi va: «Mano shu dashtga daryordan ariq chiqaringlar, dasht boqqa aylanmaguncha suvdan xabar olib turadigan miroblar tayinlanglar!» deb buyruq beribdi.

Shoh keksa otaxon bilan iliq xayrashib, saroya qaytibdi. Tez orada o'nlab ariqlar qazilib, dasht bog'-u bo'stonga aylanibdi. Bu yerga qishloq odamlari yopirilib kelib, adirlarda bog'lar yaratibdi. Shunday qilib, bir tup niholning xosiyyati, cholning bir og'iz shirin so'zi va ezgu niyati butun bir adirni obod maskanga aylantiribdi.

Demak, har bir kishi egzu niyat qilishi va ana shu niyati ushalishiga chin dildan ishonmog'i lozim ekan.

(Davomi bor)

## KITOB TAQDIMOTI



Kuni kecha poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi 274-umumta'l'm maktabida «Oqtepa» mahallasi nuroniyari, o'qituvchi va o'quvchilar ishtirotida professor Sobirjon ota Mirvaliyevning «Abdulla Qodiriy kashfiyoti» («Ijod») jamoat fondi hamkorligida chop etildi) kitobi taqdimoti bo'lib o'tdi. Unda sho'r Shukur Qurbon, professor Erkin Tursunov, adabiyotshunos olim Bahodir Habib, Baxtiyor Toirov, mahalla fuqarolar yig'ini oqsoqoli Nuriddin Jalolov va boshqalar so'zga chiqib, ushbu kitobning yutug'i, Qodiriy ijodining o'ziga xosligi haqida so'zlashdi.

– Biz bugungi taqdimotdan o'zimiz uchun ko'pgina foydal ma'lumotlar oldik, – deydi 10-«D» sinif o'quvchilar Mehrol Bozorov va Ibrohim Abdurahmonov. – «O'qishsin millat avlod, bizni doim duo aylab» deb yozgan buyuk adibimizni har dam xotirlab, asarlarini qayta-qayta o'qiyiz. Bu Qodiriy bobomizning 125 yilligiga munosib tuhfamiz bo'ladi.

Taqdimotga xonanda Saydulla Mahkamovning qo'shiqlari o'zgacha fayz bag'ishladi.

Mahmuda VALIYEVA



## PAHLAVONLAR BELLASHDI

O'zbekiston azal-azaldan polvonlar yurti. Qadimda ota-bobolarimiz, ayniqsa, o'g'il bolalarning ham jismonan, ham ruhan sog'lom kamolga yetishiga alohida e'tibor qaratgan. Boisi, yigitlar, eng avvalo, yurt posbonlari, ona Vatan himoyachilaridir.



Quvonarlisi, bugun ham mamakatimizda yosh avlod o'tasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etish, ular o'tasida sportni ommalashtirish borasida ibratlilishlar amalga oshirilmoqda. Ko'satilayotgan g'amxo'rliklar tufayli yakkakurash sport turlari bilan ko'plab yosholimiz muntazam shug'ullanib, qator yutuqlarni qo'lg'a kiritmoqda. Jumladan, dzyudo bo'yicha o'tkazilayotgan nufuzli xalqaro turnirlarda umidli va kelajagi porloq yosh polvonlarimiz qator yutuqlarni qo'lg'a kiritayotir. Buning isbotini kuni erishgan yuksak natijalar misolida ham ko'rish mumkin.

O'zbekiston dzyudo federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan ushbu turnir yuksak savyada tashkil etilib, har bir vazn toifasidagi bel olishuvlar keskin va murosasiz tarzda o'tdi. Ayniqsa, bahslarda qo'shni Qozog'iston va Tojikistondan kelgan polvonlarning ham qatnashishi bellashuvlarning yanada shiddati o'tishini ta'minladi.

Yakunda Temur Abishev, Azizbek Avazmurowov, Jaloliddin Qurbonmurowov, Muzzaffarbek To'rabyov kabi ko'plab iqtidorli sportchilarimiz shohsupaning eng yuqori pog'onasidan joy egalladi.

Sizlarga tanishitirmoqchi bo'lgan sportchi o'quvchimiz Mushtariybonu Akbarova maktabimizning 10-sinfida tahsil oladi.

## MUSHTARIYBONU JAHON CHEMPIOANI BO'LMOQCHI



U sportning suzish turi bilan 2016-yildan b u y o n shug'ullanib keladi. Murabbiyi Shahnazarxon Majmonova Mushtariybonuning iqtidorini payqab, u bilan astoydil shug'ullana

boshladi. Yosh sportchi bugunga qadar suzish bo'yicha viloyat birinchiligidagi, «Umid nihoffari» musobaqasining viloyat va respublika bosqichida g'oliblikni qo'lg'a kiritdi. Shuningdek, Samarcand shahrida o'tgan Respublika ochiq birinchiligidagi 2-o'rinni egalladi.

Maktabimiz rahbari Muhammadjon Madrahimov biz o'quvchilarning sport bilan shug'ullanishimizga alohida e'tibor qaratadi, – deydi Mushtariybonu. – Qolaversa, erishgan muvaffaqiyatlarimda ustozim Shahnoza opaning ham hissalarini katta. Kelajakda suzish sporti bo'yicha jahon va Olimpiya o'yinlari championi bo'lmoqchiman.

**Umidjon OLIMOV,**

Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 33-umumta'ilim maktabining jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi

Poytaxtimizdag ixtisoslashtirilgan olimpiya zaxiralari maktab-internati yana bir nufuzli musobaqaga mezonlik qildi. Yunonrum kurashi bo'yicha Lev Kats xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnirda 2003 - 2004-yillarda tug'ilgan sportchilar o'zaro kuch sinashdi.


## G'ALABA SHUKUHI

O'zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Milliy Olimpiya qo'mitasi, mamlakatimiz sport kurashlari assotsiatiyasi tomonidan tashkil etilgan ushbu musobaqa qo'shni respublikalardan ham yosh polvonlar ishtirot etdi. Bahslar 10 ta vazn toifasida o'tkazilib, har bir ishtirotchi g'oliblikka astoydil intildi.

Yakunda eng sara sportchilar saralanib, shohsupaga ko'tarildi. Quvonarlisi, g'oliblar orasida Sherzod Murodjonov, Husniddin Olimboyev, Islomjon Rahmatov kabi yosh polvonlarimiz ham bor.

Biz barcha sportchilarimiza galadagi yirik musobaqalarda omad va zafarlar tilaymiz.

**Sa'dullo TURSUNOV**



## SHAXMATDA PESHQADAMMIZ,

– deydi amudaryolik opa-singillar.

Aziz bolajonlar, siz faol o'quvchi deganda qanday fazilatlarga ega tengdoshsharingizni tasavvur qilasiz? Albatta, maktab ishlarida o'zini ko'rsata olgan, ko'rik-tanlovlar, «Bilimlar bellashushi»yu, fanlar olimpiadasida, sport to'garaklarida faol ishtirot etib, o'z intiluvchanligi, izlanuvchanligi bilan boshqalardan ajralib turadigan o'quvchilarni tushunasiz, shunday emasmi?

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumanidagi 69-umumta'ilim maktabida tahsil olayotgan o'quvchilar orasida ham ana shunday iqtidorli va sportsevar o'quvchilar talaygina. – Maktabdagi har bir o'quvchimiz iqtidorli, faqat uni o'z vaqtida payqash va to'g'ri yo'naltirish lozim, – deydi maktab rahbari Bahramboy aka Kulbayev.

– Ustozim Bahrom aka Matmurotovdan shaxmat sirlarini puxta o'rganib, kelgusida bundan-da katta yutuqlarni qo'lg'a kiritaman. Shaxmat ustasi Rustam Qosimjonov, kichik bo'lsada, katta muvaffaqiyatlariga erishayotgan Javohir Sindorovga havasim juda baland. Ular singari yuksak marralarga erishib, elimning, ustozlarimning ishonchini oqlayman, – deydi shaxmat-shashka bo'yicha o'tkazilgan musobaqa qo'shishida tuman miyoysida 2-o'rinni qo'lg'a kiritgan 6-sinf o'quvchisi Javohir Aminov.

– Biz shaxmatni juda yaxshi ko'ramiz. To'garakdan tashqari, uydai ham o'z ustimizda shug'ullanamiz. Opa-singil bo'lsak-da, o'yinda raqib bo'lib, dona

suramiz. Ustozimizning mehnatlari bois, shaxmat bo'yicha musobaqaning tuman bosqichida 1- o'rinni egallab, Qoraqalpog'iston Respublikasi bosqichida ishtirot etish



huquqini qo'lg'a kiritdik. Endilikda yuksak natijalarga erishish niyatidamiz, – deydi opa-singillar 9-sinf o'quvchisi Zaynab va 3-sinf o'quvchisi Xolida Otajonovalar.

**Bu maktab o'quvchilarining faqat sportdagina yutuqlari bor ekan, deb xulosa qilmag. Nasib qilsa, amudaryolik zukko, dono va iqtidorli o'quvchilarning erishayotgan muvaffaqiyatlari haqida hali ko'p bor to'xtalamiz.**

**Ozoda TURSUNBOYEVA**

# BUYUK BOBOMIZ MAQIDA QIZIQARLI MA'LUMOTLAR

Turon zamini qadim-qadimdan iste'dodli farzandlari bilan olamga dong taratgan. Ular orasida buyuk bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur timsoli beqiyosdir. Quyida sizlarga u bilan bog'liq bir qancha qiziqarli ma'lumotlarni ilindik.



Bobur juda kuchli va baquvdat inson bo'lgan. Manbalarda ikki yelkasida ikki odamni ko'tarib, qal'a devorlari ustida mashq qilgani aytildi;

Bobur yo'lda uchrangan har qanday daryoni suzib o'tar edi. U ikki marta Ganga daryosini ham suzib o'tgan;

Bobur Hindistonga 5 marta yurish qilgan. Beshinchini yurishi davomida Panipat jangida Ibrohim Lodini yengib, Hindistoni qo'lg'a kiritgan. 12 ming kishilik qo'shini bilan 100 000 askar va 1000 ta fildan iborat katta qo'shinni mag'lub etgani tarixiy manbalarda qayd etilgan;

«Ko'hi nur» olmosi, «Boburnoma»da tilga olingan, «Dunyodagi eng katta olmos», deya ta'riflanadigan javohir bo'lib uzoq yillar davomida Bobur hukmdorlar tasarrufida bo'lgan. Nomi «tog'ning nuri» ma'nosini anglatuvchi tosh unga ega bo'lgan hukmdorning kuch-qudratining ramzi hisoblangan. Uning og'irligi 191.10 karat bo'lib, Mirzo Bobur uning bahosiga o'sha paytda dunyo aholisini ikki yarm kun boqish mumkinligini aytgan. Uni Humoyunga Ibrohim Lodi xonadoni vakillari shahzodadan shafqat ko'rgani bois sovg'a qilishgan.

Internet manbalari asosida  
Sherali TOSHNIYOZOV tayyorladi

## «ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MADHI» KRIPTOGRAMMASI


### Kalit so'zlar:

- Shoh va shoir tavallud topgan maskan – 5, 6, 8, 2, 21, 4, 6.
- Boburning katta farzandi hukmdor – 22, 3, 10, 4, 11, 3, 6.
- O'rta asr sharqida birinchi tarixchi bo'lib yetishgan olima, Boburning qizi – 25, 3, 7, 9, 5, 8, 5, 6, 9, 15, 25, 2, 10.
- Bobur saroyida xizmat qilgan tarixchi – 24, 4, 6, 8, 5, 10, 2, 1.
- Bobur Mirzo qo'shini Dehli sultonni Ibohim Lodi lashkarlari ustidan zafar quchgan jang bo'lib o'tgan shahar – 18, 5, 6, 2, 18, 5, 12.
- «Bobur» videofilmida bosh qahramonni gavdalantirgan atoqli san'atkor – 5, 9, 8, 3, 13, 3, 6, 8, 3, 19, 4, 14.
- Boburning vasiyatiga ko'ra maqbara o'rnatalgan shahar – 16, 4, 9, 3, 7.
- Shoh va shoir mahorat bilan asarlar yozgan nazmiy janr – 23, 5, 19, 5, 7.
- Besh misradan tuzilgan, bir necha banddan iborat she'riy janr – 10, 3, 24, 5, 10, 10, 5, 17.
- Shoir hikmatidan: «Shuhrat bilan yoddashni hakimlar – 2, 16, 16, 2, 6, 20, 2 umr demishilar».

Endi kalit so'zları javoblari orqali shakldagi kriptogrammani hal eting. Bunda ulardan adiblar va ularning Zahiriddin Muhammad Boburni madh etib yozgan asarlarini bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Zahiriddin  
Muhammad  
Bobur



8

**Tong  
yulduzi**

**Muassis:**  
O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan  
o'tgan.

**TAHIR HAYATI:**  
Qahramon QURONBOYEV,  
Dilshod KENJAYEV,  
Murtaza SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul KARIMOV  
  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'gli  
  
**Sahifalovchi-dizayner.**  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-  
zonasida chop etildi.  
Gazetaning poligrafik ijhatidan sifatli  
chop etilishiga bosmaxona mas'ul.  
Manzilimiz va bosmaxona manzili:  
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,  
30-uy. Indeks: 100011.  
Obuna indeks: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi - 14 000  
Buyurtma - 3125

Tahririyatge kelgan barcha  
qo'lyozmalar tahrir qilmadi,  
muallifarga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi  
uchun obunani rasmiylashtirting  
tasakkot javobgar.  
Shakil A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushtanba kuni  
chop etiladi.  
Topshirish vagti - 18:00  
Topshirildi - 18:00  
Tel/faks: (9987) 244-63-08

11-fevral 2019